

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3--SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

L.T.Galimullina	Internal form of phraseological units with the components of precious stones and metals in the english language	1213
A.O.Oxunov	Ingliz va O'zbek tillarida undov so'zlar (interjection)ning ifodalanishi	1217
M.U.Mamadjanova	Linguocultural features of the epithets	1221
M.U.Mamadjanova	Tilshunoslikda epitetning lingvistik tabiati haqidagi turli qarashlar	1224
M.M.Umaralieva	The significant role of lingua-psychological, pedagogy-didactic, and methodological factors in the planning and implementation of self-directed programs	1227
Sh.A.Igamberdiyeva, A.G.Abdukadirov	Bit-dars texnologiyasi asosida ijodiy hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish samaradorligi tahlili	1232
Sh.Z.Xolmatov	So'z urg'usining nazariy tavsifi va ahamiyati qiyosiy aspektida	1236
M.M.Umaralieva	A proficient approach to self-directed learning	1241
Sh.F.Latipov	Grammatical lacunas as markers of cultural and linguistic identity	1246
Sh.F.Latipov	Lingvistik lakunani aniqlash haqida ayrim tushunchalar	1249
A.A.Qosimov	Linguo-pragmatic typology of metaphors: the intersection of language and pragmatics	1252
A.A.Qosimov	A linguo-cultural approach to metaphor classification: unveiling cultural concepts through figurative language	1258
M.G'.Zaylobidinova	Nodavlat ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarning ta'limni modernizatsiyalash orqali hayotiy ko'nikmalarini oshirish	1264
Д.Ш.Ибрагимова	Сущность и структура иноязычной коммуникативной компетенции будущих учителей	1268
Д.Ш.Ибрагимова	Эффективность использования театрализации в обучении студентов устойчивым базовым английским фразам для чрезвычайных ситуаций	1272
Д.Ш.Ибрагимова, Й.Х.Музаффархонов	Использование театрализации в процессе формирования речевых навыков у студентов	1278
M.N.Abdulimova	Theory of cognitive and conceptual metaphors	1282
M.N.Abdulimova	Analysis of metaphors used in political texts	1286
S.O'.Shermamatova	Analyses of J.D.Salinger's works	1291
X.Zikiryoxonovna	Falsafiy-psixologik romanda tush motivi	1295
X.Z.Umarova	Maktublar – qahramon qalb oynasi	1298
Sh.A.Igamberdiyeva, A.G.Abdukadirov	Significance of motivation in developing students' creative cooperation skills	1301
S.S.Usmanova	Jadidchilik va adabiy muhit xususida	1304
V.Abdurakhmanov	Classification and description of the main alternative issues in social life	1307
R.M.Turdimatova	The intricacies of irony: types and examples	1311



UO'K: 801.5:81'1

LINGVISTIK LAKUNANI ANIQLASH HAQIDA AYRIM TUSHUNCHALAR

НЕКОТОРЫЕ ПОНЯТИЯ ОБ ОПРЕДЕЛЕНИИ ЯЗЫКОВЫХ ЛАКУН

SOME CONCEPTS ON THE DETERMINATION OF LINGUISTIC LACUNA

Latipov Sherzod Foziljon o'g'li

Farg'ona davlat universiteti, Amaliy ingliz tili kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqola lingvistik bo'shliqlarning murakkab sohasini o'rganadi, bu bo'shliqlarni til doirasidagi aniqlash va hal qilishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan ayrim mexanizmlar va tushunchalarni yoritadi. Lingvistik lakunalar tilda o'ziga xos tuzilmalar, iboralar yoki grammatik xususiyatlar mavjud bo'lmagan joylarni bildiradi. Ushbu bo'shliqlarni aniqlash va hal qilish lingvistik to'liqlik va samarali muloqot uchun juda muhimdir. Ushbu maqola lingvistik kamchiliklarni aniqlash va yumshatishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan turli metodologiyalar, nazariyalar va mulohazalarni yoritadi.

Аннотация

Эта статья углубляется в сложную область языковых лакун, проливая свет на механизмы и концепции, имеющие решающее значение для выявления и устранения этих пробелов в языковой структуре. Лингвистические лакуны обозначают области, где в языке отсутствуют определенные структуры, выражения или грамматические особенности. Обнаружение и устранение этих пробелов имеют важное значение для лингвистической полноты и эффективного общения. В этой статье освещаются различные методологии, теории и соображения, имеющие решающее значение для выявления и смягчения лингвистических пробелов.

Abstract

This article delves into the intricate domain of linguistic lacunae, shedding light on the mechanisms and concepts crucial in identifying and addressing these gaps within a language framework. Linguistic lacunae signify areas where a language lacks specific structures, expressions, or grammatical features. Detecting and resolving these gaps are essential for linguistic completeness and effective communication. This article elucidates various methodologies, theories, and considerations pivotal in discerning and mitigating linguistic lacunae.

Kalit so'zlar: lingvistik bo'shliq, lakuna, lug'aviy birlik, grammatik element, bo'shliqni aniqlash.

Ключевые слова: языковой пробел, лакуна, лексическая единица, грамматический элемент, определение пробела.

Key words: linguistic gap, lacuna, lexical unit, grammatical element, gap definition.

KIRISH

Lingvistik bo'shliqni aniqlash uchun shunchaki, bir ko'z yugurtirish yetmaydi. Ayniqsa lug'aviy yani bir til ichidagi bo'shliqlarni aniqlash anchagina qiyindir. Lug'aviy bo'shliqlarni aniqlash uchun albatta mazkur tilning lug'atini kamchiliksiz o'z ichiga olgan lug'atlar kerak bo'ladi va bo'shliqni aniqlash uchun butun boshli lug'atni ipidan ignasigacha ko'rib chiqish kerak bo'ladi, garchi buning imkoni bo'lmasa ham. Bundan tashqari tilning jonli bir narsa ekanligini, davomli shaklda o'zgarib turishini ham unutmashlik darkor. Onglarimizga kirib kelayotgan yangi tushunchalar bilan birgalikda, yangi atamalarni o'zlashtirishga yoki ishlab chiqishga ochiq turadi til. Bu ham o'z o'rnida bo'shliqlarni aniqlashdagi ishni qiyinlashtiradigan sabablardan biridir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Lingvistik bo'shliqlarni aniqlash usullari haqida so'z ochishdan avval til ichidagi va tillar o'rtasidagi bo'shliqlarni hosil qiladigan holatlar va birorta lingvistik elementning yo'qligi uchun qanday qilib unga bo'shliq deyishimiz mumkinligi haqida gapirib o'tishimiz kerak bo'ladi.

Til ichida yo'q bo'lgan har qanday element uchun bo'shliq deyaverish xato bo'lishi mumkin. Bunday xatoni oldini olish uchun bizga birorta tizim yoki bo'shliqni aniqlab beradigan qoidalar kerak bo'ladi. Bo'shliqni bo'shliqligini ko'rsatadigan shunday qoidani, shuniqdek bo'shliqni tushunchaviy

yoki lug'aviy ekanligini aniqlashda ham ishlatsa bo'laveradi. Yuqorida bo'shliqlarni ifodalash haqida gap ketganda bu mavzuda ham biroz aytib o'tildi. Proostning ifodalshiga ko'ra birorta bo'shliqni lug'aviy bo'shliq deb hisoblanishi uchun uni lug'aviy element bilan yopish imkonining bor yoki yo'qligiga qaraladi. Agar tushuncha, lug'aviy elementlardan tashqari narsalar bilan ifodalanilayotgan bo'lsa, demak lug'aviy bo'shliq borligini qo'rqmay aytaversak bo'ladi. [1;98] Garchi bizning mavzu bo'lmasa ham, lug'atlashtirish qoidalarini ko'rib o'tish ham foydadan holi bo'lmaydi. Qanday birliklarga lug'aviy birlik deb qaralishi, qaysilari esa lug'atga kiritilmasligi va lug'aviy birlik qanday bo'lishini bilib olganimizdan keyingina bo'shliqlar haqida hukm chiqarish imkoni bo'ladi.

NATIJA VA MUHOKOMA

Bo'shliqlar qanday holatlarda paydo bo'lishi va ehtimolli lug'aviy birliklarning xususiyatlari haqida shunday fikr bildiradi:

- birorta lug'aviy birlik, grammatik strukturalarning semantik tuzilishiga zid keladigan semantik tuzilishga ega bo'lishi kerak.
- to'liq bir gap bir dona so'zga teng bo'la olmaydi.
- harakatlar referential indexlarni o'z ichiga olmaydi. Masalan, mushukning ismi "choco" bo'lsa, bu so'zni mushukka bog'liq harakatlar ichiga qo'yib ishlatib bo'lmaydi. Yani yangi so'z yaratib bo'lmaydi. Masalan, uni qatl qilmoq ma'nosida "dechocotate" deb bo'lmaydi.

Birorta tildagi ehtimolli lug'aviy birliklar o'sha tilda allaqachon joy olgan boshqa lug'aviy birliklarga bog'liqdir. Yuqorida ham aytib o'tilganidek, Lehrer bu holatni ingliz tilida berilgan bir misol bilan tushuntirib beradi. "Child" so'zi qiz va o'g'il bola farzand uchun ishlatiladi, "parent" so'zi ona uchun ham, ota uchun ham, yani har ikkala jins uchun ham ishlatilaveriladi. Lekin ingliz tilida amma va amaki, tog'a va hola, qiz va erkak jiyalar uchun har ikki jins uchun ham ishlatiladigan ust ma'noli so'zning yo'qligi lug'aviy bo'shliq hosil qiladi. Ammo ingliz tilida aka va uka uchun alohida so'zning yo'qligi lug'aviy bo'shliqni hosil qilmaydi. Chunki tug'ishganini yoshiga qarab atash ingliz tilida aslida yo'q. Faraz qilaylik, agar ingliz tilida aka ma'nosini beruvchi alohida lug'aviy birlik bo'lsa edi, unda uka ma'nosini beradigan so'zning yo'qligi lug'aviy bo'shliqni keltirib chiqarardi. Turk tilida aka ma'nosida "ağabey" va opa ma'nosida "abla" so'zlari bor. Ammo uka va singil ma'nosini beruvchi so'zlarning yo'qligi lug'aviy bo'shliq borligini ko'rsatadi.

Lehrer, ya'ni lug'aviy bo'shliq hosil bo'lishi uchun quyidagilarni ham shart qilib ko'rsatadi: [2;257]

- lug'aviy shaklga solib bo'lmaydigan tushunchalar uchun bo'shliq hosil bo'lmaydi.
- mavjud bo'lmagan narsalar, harakatlar, holatlar uchun ham bo'shliq hosil bo'lmaydi.
- lug'aviy bo'shliq bo'lishi uchun o'sha turga mansub so'zlarning jadvalida kamida bitta bo'lsa ham so'z bo'lishi kerak. Bunday jadval birorta lug'aviy maydonga mansub bo'lgan mavjud lug'aviy bo'shliqlardan tashkil topadi va qator va ustun shaklida tuzilgan bu jadvaldagi bo'sh joylar lug'aviy bo'shliqlar deyiladi. [1;98-102]

Ko'rib turganimizdek, Lehrer ushbu mavzuga katta e'tibor berib, detalli shartlarni tuzib chiqqan. Ammo bu borada Lyonsning fikri boshqacharoq bo'lib, u mavjud bo'lishi mumkin bo'lmagan narsa, harakat, holatlardan misollar keltirib, bu tushunchalar uchun lug'aviy birliklar bo'lishi kerakligi va lug'aviy bo'shliq mavjudligini ta'kidlagan. [3;301-305] Albatta bu narsa boshqa madaniyatga oid ammo ma'lum bir madaniyatda notanish bo'lgan tushunchalar haqida gap ketgani yo'q. Masalan, u "oilali bo'ydoq" yoki "to'rtburchak doira" kabi atamalarni ishlatadi. Ammo bularni uni o'zi ham ahmoqona tushunchalar deb ataydi. Bunday tushunchalarning bo'lishi mumkin bo'lmagani uchun, ularni nomlashga lug'aviy bo'shliqning bo'lmasligini lug'aviy bo'shliq deb aytish to'g'ri bo'lmaydi. Yana shuningdek, u ham Lehrerning fikriga parallel ravishda, lug'aviy bo'shliqni bir tildagi lug'aviylashmagan farqlovchi xususiyat turlariga asoslanishini aytadi. [1;104-1-7]

Lyons ta'kidlaganidek, aqlga sig'maydigan tushunchalarni nomga ega bo'lmasligi tildagi kamchilik hisoblanmaydi. [3;301-305] Agar buni teskarisini rost deb o'ylasak, barcha tillarda juda ham ko'plab bo'shliqlar bor bo'lar edi. Bunday holatlarga bo'shliq deb qaralsa ham, ularni to'ldirishni keragi yo'q. Tildagi bo'shliqlarni insonlarning onglaridagi tushunchalarga asoslanishi kerakligini yuqorida ham aytib o'tildi.

Lingvistik bo'shliqlarni aniqlashning shartlari bilan birga ushbu bo'shliqlarni keltirib chiqargan sabablarni o'rganish ham bo'shliqlarni aniqlashda ahamiyatli bo'lishi shubhasizdir.

TILSHUNOSLIK

Sababi ma'lum bo'lgan bo'shliqni aniqlash yana ham oson bo'ladi lekin barcha bo'shliqlar shu bitta sababga ko'ra paydo bo'lgan deyish to'g'ri bo'lmaydi. Bo'shliqlarning turlariga qarab sabablari ham turlicha bo'ladi. Ko'p emas balki bir nechta mavzu bilan aytib o'tishimiz mumkin bo'lgan bo'shliq turlari, xar xil olimlar tarafidan boshqacha ko'rinishlarda tadqiq qilingandir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, lingvistik bo'shliqlarni o'rganish tilning nozik tomonlari va murakkabliklari haqida muhim tushunchalarni ochib beradi. Ushbu bo'shliqlarni tushunish - ular tarjima qilib bo'lmaydigan tushunchalar, madaniy o'ziga xosliklar yoki leksik bo'shliqlarga tegishli bo'ladimi - bizning alohida tillarni va kengroq inson tajribasini tushunishimizni kuchaytiradi. Lakunalarni aniqlash va tahlil qilish orqali tilshunoslar turli tillarning o'ziga xos cheklovlari va noyob kuchli tomonlarini yaxshiroq tushunishlari mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Proost, K. (2007). *Conceptual Structure in Lexical Items: The Lexicalisation of Communication Concepts in English, German and Dutch*, John Benjamins Publishing Company, Filadelfia.
2. Lehrer A. Notes on lexical gaps. *Journal of Linguistics*. 1970;6(2):257-261.
3. Lyons, J. (1977). *Semantics (Vol. 1)*. Cambridge: Cambridge University Press.